

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 154 (1215), 2024-yil 2-avgust, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



ERKIN KONVERTATSIYA

ZAMONAVIY IQTISODIYOTNI BARPO ETISHNING MUHIM OMILI BO'LDI

Taraqqiyot yo'li



joriy etilishi va konvertatsiyasi hech qaysi davlatda osonlik bilan hal qilinmagan. Quyida aynan ana shu jarayonlar mamlakatimizda qanday amalga oshirilgani haqida fikr yuritamiz.

Konvertatsiya — mamlakatimizda yangi O'zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek buyuk maqsadlar yo'lida boshlangan tarixiy yangilanishlar, ulkan va xalqparvar islohotlarning ilk nishonalari. Boshqacha aytganda, joriy yil 5-sentabrda so'mni xorijiy valyutaga konvertatsiya qilishni erkinlashtirish boshlanganiga 7 yil to'ladi. Buning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati haqida fikr yuritishdan oldin milliy pul birligimiz — so'mning joriy etilishiga to'xtalib o'tsak, maqsadga muvofiq bo'ladi, nazaringizda.

Milliy valyuta

Mustaqillikka erishgan yosh davlatlar oldida turgan o'ta muhim vazifalardan biri milliy pul birligiga ega bo'lishdir. 1991-1992-yillarga xayolan bir qaysak. Yurtimiz istiqbolga erishgan, lekin sobiq ittifoq hududida rubl hamon umumiy pul birligi vazifasini bajarardi. Mustaqil davlatlar zudlik bilan o'z milliy pul tizimini yaratishi talab etilardi.

Davomi 3-betda

O'tayotgan har bir tong, o'tayotgan har bir kun bizni eng ulug', eng aziz ayyom — davlatimiz mustaqilligining o'ttiz uch yillik bayramiga tobora yaqinlashtirmoqda. Prezidentimizning joriy yil 18-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, ayni kunlarda butun mamlakatimiz bo'ylab chinakam umumxalq bayramini ozodlik va saodat ayyomi sifatida ko'tarinki kayfiyatda kutib olish hamda yangi O'zbekistonning bugungi taraqqiyot darajasi, yuksalish sur'atlariga munosib tarzda nishonlashga hozirlik ko'rilmogda.

Shu ma'noda, bugun milliy mustaqillikni mustahkamlash yo'lidagi tarixiy islohotlar, shu jumladan, so'm va konvertatsiya mavzusiga to'xtalishning ayni mavridi, deb o'yladik. Binobarin so'm joriy etilishi va erkin konvertatsiya bilan bog'liq ikki muhim voqea iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vositasi o'laroq milliy mustaqillikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy iqtisodiyotni barpo etishda alohida o'rni bo'lgan milliy pul birligining



MUZAFFARBEK TO'RABOYEV BRONZA MEDAL SOHIBI!

Parij mezbonlik qilayotgan XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlari qizg'in pallaga kirmogda. To'rt yillikning eng nufuzli musobaqalarini katta qiziqish bilan kuzatib borayotgan ham yurtlarimiz sportchilarimiz g'alabasini, medallar kutayotgani ham bor gap.

Kuni kecha sportchilarimiz qo'lga kiritgan medallar soni yana bittaga ko'paydi.

Dzyudo bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Muzaffarbek To'raboyev

bronza medal uchun kechgan bahsda ispaniyalik Nikoloz Sherazadishvili ustidan g'alabaga erishib, delegatsiyamiz hisobini ikkinchi medal bilan boyitdi.

G'alaba barchamizga muborak bo'lsin!

Shukuh

O'ZBEK BUG'DOYI

Hayotga mengzaluvchi ne'matni yetishtirishdagi ishlarga bir nazar

O'tgan asrning 90-yillaridagi statistik ma'lumotlarda mamlakatimiz dalalaridan — har gektardan 16 sentnerdan g'alla hosili olingani haqida ma'lumotlar keltirilgani kechagidek esimda. Bevosita shu soha vakili, mutaxassisi, ilm odami sifatida bu meni ko'p o'yantirardi: yetishtirilgan ushbu hosil kammi yoki yetarli?

To'g'ri, mustaqillikning dastlabki yilida O'zbekiston aholisi qariyb 21 million kishi edi. Hatto o'sha kezlari omborlarimizda bor-yo'g'i ikki haftaga yetadigan don zaxiramiz qolgan haqidagi xabarlarini ham eshitgan edik. Bu zudlik bilan zarur choralar ko'rishni taqozo etadigan holat edi.

Hozir qariyb 40 millionga yaqinlashib qolgan O'zbekiston xalqining to'q va farovon, ahil, tinch hayotini kuzata turib, xayol beixtiyor o'sha davrlarga ketadi. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligidagi islohotlar, o'zgarishlar samarasi qalbdan shukrona tuyg'usini uyg'otadi.

Chunki ortda qolgan yillar ichida, ayniqsa, g'allachilikda erishilgan yutuqlarni boshqa biror sohada erishilgan muvaffaqiyat bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Zero, bug'doy rizq-ro'zimiz, to'kin dasturxonimiz, xotir-jamligimiz, osoyishta hayotimiz manbai. To'y-tomoshalarimiz, oddiy kunimiz bebaho non bilan o'tadi. Shukrki, bugun yurtimizda ushbu ne'mat yetarli. Samarqand noni, Xorazm noni, Qo'qon patiri, Toshkent kulchasi va yana qancha-qancha non turi dasturxonimizda muhayyo. Hech kimda non tashvishi yo'q.

Davomi 4-betda



Xalq ertaklarida manzilga yetish uchun yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, degan ifoda qo'llanishidan xabaringiz bor. Oxir-oqibat qahramon yo'l azobi — go'r azobini boshidan kechirib, belgilangan joyga yetib boradi. Barcha zamonlarda yo'llar ellarni ellarga, manzillarni manzillarga, imkoniyatlarni imkoniyatlarga, iqtisodiyotni iqtisodiyotga bog'lagan. Bugungi kunda ham davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri — yo'llar sifatini yaxshilash. Yo'l aholi va transport vositalari harakatlanishi uchun qulayliklar yaratishga xizmat qiladi.

OLTI SOATLIK MASOFA IKKI SOATGA QISQARADI

Obod manzillar



Yaqin yillargacha Surxondaryoda yo'l infratuzilmasi xususidagi tashabbuslar ko'zga tashlanmasdi.

Masalan, xalqaro ahamiyatga molik magistral yo'llar orqali qo'shni Tojikiston va Afg'onistonga juda kam qatnovlar amalga oshirilardi. Vohani mamlakatning boshqa hududlari bilan bog'lovchi birgina avtomobil yo'li — Termiz-Darband yo'nalishiga murojaat qilinardi. Birgina misol, viloyatning shimoliy qismi — Sariosiyo, Denov, Uzun tumanlari aholisi vohadan chiqish uchun eng janubga — Termiz sari qariyb 140-150 kilometr yo'l bosib, asosiy yo'lga tushib olgan holda yana Qashqadaryo chegarasiga qadar 300 kilometrqa yaqin yo'l yurishi lozim bo'lardi.

Davomi 2-betda

Nuqtayi nazar

MUAMMOLAR OCHIQ AYILGANDA...

Turizmni rivojlanirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar samarasi

Har bir soha rivoji yaratilgan shart-sharoit va imkoniyatlarga bog'liq. Shu jihatdan mamlakatimiz turizm sohasida yuz berayotgan o'zgarishlar zamirida ana shunday sa'y-harakatlar mujassam, desak bo'ladi. Buning natijasida joriy yilning olti oyida mamlakatimizga 3,5 milliondan ortiq xorijlik sayyoh keldi. "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturi doirasida hududlar bo'yicha 12 million 716 ming yurtdoshimiz sayohatga chiqdi. Turizm va yondosh yo'nalishlarda 26 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratildi.

Hududlarda 68 ta yangi mehmonxona va 113 ta xostel faoliyati yo'lga qo'yildi. Joylashtirish vositalari soni 5773 taga yetib, ulardagi o'rinarlar 151 mingdan oshdi. 150 ta oilaviy mehmon uyi ochilib, ularning umumiy soni 3554 tani, o'rinarlar soni esa 31 ming 712 tani tashkil etdi. Turistlar uchun xizmat ko'rsatuvchi 427 ta yangi turistik tashkilot va turagent ishga tushirildi.

Bugun mamlakatimiz bo'yicha 2551 gid-ekskursavod faoliyat yuritmoqda.

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti Shahrisabzga tashkilotning turizm poytaxti maqomini berishi munosabati bilan o'tgan yili ushbu shaharda a'zo davlatlar hamkorligida xalqaro tadbir bo'lib o'tdi.

Davomi 5-betda

Kecha va bugun

BIRINCHI AVGUST ESINGIZDAMI?

Yoxud millat kelajagiga qarshi o'yinlar



2

O'zbekiston o'z milliy pul birligini 3 bosqichda joriy etdi. Birinchi bosqichda 1992-yilning yanvaridan iste'mol bozorini himoyalash va mahsulotlarni faqat O'zbekiston fuqarolariga sotish uchun bir marta ishlatiladigan kuponli kartochkalar chop etildi. Ular 1992-yilning 22-noyabriga qadar amal qildi.

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz



Odil OLIMJONOV,
Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar
markazi bosh ilmiy xodimi,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

O'zbekiston o'z milliy pul birligini 3 bosqichda joriy etdi. Birinchi bosqichda 1992-yilning yanvaridan iste'mol bozorini himoyalash va mahsulotlarni faqat O'zbekiston fuqarolariga sotish uchun bir marta ishlatiladigan kuponli kartochkalar chop etildi. Ular 1992-yilning 22-noyabriga qadar amal qildi.

Kuponli kartochkalar gazeta qog'ozida chop etilgan va tashkilotning muhri bosiladigan kartochkasi qirib olinuvchi shaklda bo'lgan. Oziq-ovqat do'konlari, umumiy ovqatlanish korxonalarida kuponlarning naqd pulda to'lanishi kerak bo'lgan hisobga yarasha qismi qaychida qirib olingan. Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 30-martdagi qarori bilan tasdiqlangan Tovarlarini kuponli kartochkalar bo'yicha sotish, ularni berish, saqlash, hisobga olish, inkassatsiya qilish va muomalaga chiqarish tartibi to'g'risida vaqtinchalik nizomga ko'ra, bunday kuponlar muomalaga blankaning 10, 25, 50, 100, 200 va 500 so'mlik nominal qiymati bilan chiqarilgan.

Ikkinchi bosqichda, ya'ni 1993-yil 12-noyabrda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi hududida parallel to'lov vositasi sifatida "so'm-kuponlar"ni muomalaga kiritish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unda so'm-kupon mamlakat ichki bozorini ortiqcha rubl oqimidan himoya qilish, aholiga pul mablag'larini to'lashni o'z vaqtida ta'minlash maqsadida 1961-1992-yillarda amalda bo'lgan sobiq ittifoq rubliga hamda Rossiya Federatsiyasi davlat bankining 1993-yil nusxasidagi qog'oz pullariga 1:1 nisbatda muomalaga kiritildi.

Yangi pul birligi "so'm-kupon" deb atalgani bilan kupyurada nomi "so'm" deb yozilgan edi. O'sha paytda rubl asosiy pul birligi sifatida amal qilayotgan sharoitda O'zbekiston rahbariyati birdan yangi milliy pulga o'tishni maqsadga muvofiq emas, deb hisobladi.

So'm-kupon Angliyaning "Harrison & Sons Ltd" pul fabrikasida chop etildi. U 12 ta kupyura, ya'ni 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100, 200, 500, 1000, 5000 va 10000 so'm-kupon shaklida ishlab chiqarildi. So'm-kupon 1993-yil 15-noyabrda 1994-yil 1-avgustga qadar, ya'ni 9,5 oy muomalada bo'ldi.

1994-yil 1-iyul kuni haqiqiy pul birligi — so'm joriy etildi. So'm ushbu sanadan e'tiboran ungacha amalda bo'lgan so'm-kuponiga 1:1000 nisbatda muomalaga kiritildi.

So'm dastlab 1, 3, 5, 10, 20, 50 tiyinlik tanga hamda 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100 so'mlik qog'oz kupyura shaklida muomalaga chiqarildi. 100 so'mgacha bo'lgan jami qog'oz pul Germaniyaning "Giesecke & Devrient" firmasida chop etildi. 1997-yili muomalaga kiritilgan 200 so'mlikdan boshlab keyingi barcha kupyura o'zimizning "Davlat belgisi" korxonasida bosilmoqda. O'zbek so'mi dizayni, milliylik va himoyalash darajasi bilan eng sifatli milliy pul birligi qatorida turadi.

Rasmiy va "qora bozor" kursi o'rtasidagi deyarli 2 barobarlik farq

Mamlakatimizda milliy pul birligi bo'lmish so'm muomalaga kiritilgandan keyin uni xorijiy valyutalarga almashtirish, ya'ni konvertatsiya qilish masalasi dolzarb bo'ldi. Chunki milliy valyutani boshqa valyutalarga konvertatsiya qilmasdan

TARAQQIYOT YO'LI

ERKIN KONVERTATSIYA

zamonaviy iqtisodiyotni barpo etishning muhim omili bo'ldi

iqtisodiy hamkor davlatlar bilan savdo-sotiq aloqalarini to'laonli amalga oshirish qiyin edi.

1994-yildan 2017-yil 5-sentabrga qadar konvertatsiya to'g'ri tashkil etilmadi, u turli cheklov va to'siqlar bilan amal qildi. So'mning konvertatsiyasini boshqarish uchun markaziy iqtisodiy idoralar va vazirliklar vakillaridan iborat maxsus komissiyalar tuzildi. Ular umumdavlat manfaatlariga xizmat qiladigan obyektlar qurilishi uchun import qilinadigan texnologiya, texnika, uskuna va jihozlar, o'zimizda ishlab chiqarilmaydigan oziq-ovqat mahsulotlari, bizda ko'rsatilmaydigan xizmatlar uchun konvertatsiyaga ruxsat berar edi.

Bunday konvertatsiya Markaziy bank rasmiy kursi atrofida amalga oshirilardi. 2017-yilning avgust oyi oxirlarida tijorat banklarining almashuv kursi bilan "qora bozor" kursi o'rtasidagi farq deyarli 2 barobar edi. Bundan tashqari, birja kursi ham bor edi. So'mning deyarli 4 xil kursi mavjudligi, konvertatsiyaning cheklangani iqtisodiyot rivojiga jiddiy to'siqlardan biriga aylandi.

Hujjatlarida valyuta kursi unga talab va taklif asosida aniqlanishi kerakligi qayd etilgan bo'lsa-da, amaliyotda bu tartibga rioya qilinmadi. To'g'ri, valyuta bozorini liberallashtirish borasida ayrim tadbirlar o'tkazildi.

Jumladan, 2003-yil 15-oktabrdan O'zbekiston Respublikasi Xalqaro valyuta jamg'armasi bitimining VIII maddasidagi majburiyatni qabul qildi. Natijada korxonalar joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyani amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak edi. Lekin amalda bu ish ham nihoyasiga yetkazilmadi.

Yangi bozor mexanizmi

2017-yil 5-sentabrda mamlakatimiz iqtisodiy siyosatida o'ta muhim voqea yuz berdi. Milliy pul birligimiz bo'lmish so'mni xorijiy valyutalarga konvertatsiya qilishni erkinlashtirish



sohasida juda katta qadam tashlandi. Shu kundan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 2-sentabrdagi "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, valyuta munosabatlarini tartibga soladigan hamda yuridik va jismoniy shaxslar uchun xorijiy valyutani erkin sotish va sotib olishga imkon beradigan yangi bozor mexanizmi amalga kiritildi. Boshqacha aytganda, so'mning haqiqiy konvertatsiyasi boshlandi.



Bunda milliy valyuta kursini chet el valyutasiga talab va taklifga asosan belgilash joriy qilindi hamda chet el valyutalarining sotilishi, sotib olinishi va tasarruf qilinishi borasidagi avval mavjud bo'lgan cheklovlar bekor qilindi.

2017-yil 5-sentabrda so'mning AQSH dollariga nisbatan qiymati Markaziy bank rasmiy kursi bo'yicha emas, balki "qora bozor" kursi, ya'ni 8100 so'm miqdorida etib belgilandi. **Konvertatsiyani bozor kursida boshlashga qaror qilinishi katta jasorat edi.** Chunki konvertatsiya boshlanishi arafasida Markaziy bank rasmiy kursi bo'yicha bir dollar 4210,35 so'mga teng edi. Konvertatsiyani bozor kursi bilan boshlaganda iqtisodiyot ko'lamini ko'rsatuvchi o'ta muhim yalpi ichki mahsulot, banklar kapitali, aktivlari, depozitlari kabi iqtisodiy ko'rsatkichlarimizning xorijiy valyutada hisoblangan miqdori aynan shuncha, ya'ni 2 barobar kamayib ketardi.

Konvertatsiyani Markaziy bank rasmiy kursi asosida belgilash esa valyutaning haqiqiy kursini ifodalay olmasdi. Qolaversa,



bu kursni barqaror ushlab turish uchun juda katta miqdorda xorijiy valyuta ishlatishga majbur bo'lardik. Xorijiy davlatlarning barcha miqdordagi valyutasini topish ham juda qiyin edi. O'sha paytdagi iqtisodiy hayot konvertatsiyaning bozor kursida boshlangani juda to'g'ri ekanini ko'rsatdi.

Eng avvalo, Prezidentimizning valyuta siyosatini erkinlashtirishga mo'ljallangan "Valyuta siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori loyihasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida

e'lon qilindi va umumxalq muhokamasiga qo'yildi. Mazkur masalaga qiziqqan barcha hamyurtlarimiz loyihaga nisbatan o'z fikr va mulohazalarini bayon etdi. Portalga tushgan takliflar valyuta siyosatini erkinlashtirish bo'yicha qabul qilingan farmonni boyitishga xizmat qildi.

Mamlakatimizda milliy valyutani xorijiy valyutalarga erkin konvertatsiya qilish

Jismoniy shaxslarning naqd shaklda xorijiy valyuta sotib olishiga qo'yilgan cheklov 2 bosqichda bekor qilindi. Dastlab jismoniy shaxslar uchun konversion kartochkalarga valyuta almashtirish miqdoriga qo'yilgan cheklov olib tashlandi. Keyinroq bu masalada ham to'la erkinlik o'rnatildi.

ochilishi bilan bog'liq o'ta muhim jihat namoyon bo'ldi. Ya'ni ayrim davlatlarda milliy pul birligini konvertatsiya qilishning boshlanishi hamma uchun mullaqo kutilmagan paytda va oldindan e'lon qilinmasdan boshlanadi. Shu bois, ko'pchilik g'afatda qoladi va bundan juda katta moddiy zarar ko'radi.

Bizda esa ulardan farqli o'laroq, o'zbek so'mining konvertatsiyasi boshlanishi 2017-yil boshidayoq hammaga ma'lum qilindi. **Konvertatsiya ochiq va shaffof amalga oshirildi.** Jumladan, Prezidentimizning 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida bu haqda oldindan ma'lum qilingan edi. Konvertatsiyaning 5-sentabrda ochilishi haqidagi qaror ham 2-sentabrdayoq e'lon qilindi.

Bu nima uchun kerak edi?

Bu savolning javobi Prezidentimizning 2017-yil 2-sentabrdagi tarixiy farmonida bayon etilgan: **"Konvertatsiya, eng avvalo, mamlakatimizda investitsiya va ishbarmonlik muhitini yanada yaxshilash,**

30 yildan beri so'm yuridik va jismoniy shaxslar uchun o'zaro iqtisodiy aloqa o'rnatish ekvivalentligini ta'minlovchi muhim vosita sifatida xizmat qilyapti. Iqtisodiyotda qiymat o'lchovi, muomala, jamg'arish va to'lov vositasi vazifalarini samarali bajaryapti.

ekspertni rag'batlantirish, korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish uchun zarurdir.

Xorijiy investorga har qancha imtiyoz bersangiz va jozibador muhit yaratsangiz, lekin milliy pul birligingiz erkin konvertatsiya qilinmasa, ularning ko'pi biznes qilish uchun mamlakatimizga kelishga jazm qila olmaydi. Negaki xorijiy sarmoyador bunday sharoitga ko'nikishi qiyin. U boshqa davlatlardan olib kelgan valyutasini xohlagan paytda va xohlagan miqdorda konvertatsiya qilish, ayniqsa, o'zi ishlab topgan foydani boshqa mamlakatga olib ketish huquqiga ega bo'lishi kerak. Mazkur hujjat bilan yurimizda ana shunday sharoit yaratildi. Bu esa mamlakatimizga xorijdan kelayotgan investitsiya hajmining keskin oshishiga huquqiy asos yaratdi.

So'm konvertatsiyasi milliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi va ichki bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga ham katta hissa qo'shdi. Gap shundaki, so'mni konvertatsiya qilishning mamlakatimizda qo'llab kelingan eski usulida korxonalar tijorat banklariga muayyan mablag'ni konvertatsiya qilish uchun ariza topshirib qo'yib, uning ijrosini uzoq muddat kutishga majbur edi. Konvertatsiya uchun ajratilgan mablag' ham valyuta birjasining maxsus hisobovaruvida shu muddat saqlanardi. Ya'ni konvertatsiya uchun topshirilgan pulning egasi o'z mablag'idan shu vaqt ichida foydalana olmasdi. Bu usul iqtisodiy hayotga qanchalik salbiy ta'sir ko'rsatganini mablag'ini o'z vaqtida konvertatsiya qilib bermagani tufayli bankrot bo'lgan ko'plab tadbirkorlar alam bilan eslaydi.

Eng yomoni, ma'muriy aralashuv bilan mablag'ini konvertatsiya qildirgan xo'jalik yurituvchi subyektlar bozorda qulay sharoitga ega bo'lar, rasmiy kurs bilan norasmiy kurs o'rtasidagi farqdan katta miqdorda daromad olardi. Ayrim korxonalar rasmiy kurs bilan mablag'ini valyuta birjasida konvertatsiya qilolmasligi sababli mahsulotini naqd pulga sotar va unga "qora bozor"dan valyuta sotib olib, import shartnomalari bo'yicha majburiyatlarini noqonuniy sxemalar orqali yopardi. Bu esa davlat budgetiga soliq to'lamaydigan yashirin iqtisodiyotning yanada kengayishi va tijorat banklariga naqd pul tushumi keskin kamayishiga olib kelardi. Odamlar ish haqini plastik kartochkasiga olar va naqdlashtirish uchun 10-15 foiz assosiz baddal to'lardi.

"Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonda ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning ijobiy jihatlari juda ko'p. Ulardan biri xorijga mahsulot va xizmatlar eksport qiluvchi korxonalar faoliyati bilan bog'liq. Valyuta sohasini liberallashtirish mamlakatimiz eksport imkoniyatini oshirishni rag'batlantirish bo'yicha ham qator yangi imkoniyatlar yaratdi.

Masalan, mamlakatimiz yuridik shaxslari tovar, ish va xizmatlar importi, foyda repatriatsiyasi, kreditlarni qaytarish, xizmat safari xarajatlari kabi to'lovlarni amalga oshirish uchun xorijiy valyutani cheklovsiz sotib olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bir paytning o'zida barcha eksportchi korxonalar chet el valyutasidagi tushumini majburiy sotib bo'yicha talab ham bekor qilindi. Buning tadbirkorlik muhitiga ijobiy ta'sirini so'z bilan ifodalash juda qiyin.

2013-yil 1-yanvardan jismoniy shaxslar naqd shaklda xorijiy valyuta sotib olish imkoniyatini yo'qotgan va buning uchun ular tijorat banklarida maxsus konversion plastik kartochka ochib, unga uch oyda bir marta 2000 AQSH dollari ekvivalentida xorijiy valyuta sotib olish huquqiga ega hamda bu valyutani faqat xorijda ishlatishi mumkin edi. Shunga qaramay, ko'pchilik yurtdoshlarimiz, hatto xorijga davolanish uchun borish va farzandlarining o'qishiga pul to'lash uchun mablag'ini konvertatsiya qila olmasdi. Ularning ko'pi ushbu maqsad uchun zarur xorijiy valyutani "qora bozor"dan yuqori kursda sotib olishga majbur bo'ldi.

Jismoniy shaxslarning naqd shaklda xorijiy valyuta sotib olishiga qo'yilgan cheklov 2 bosqichda bekor qilindi. Dastlab jismoniy shaxslar uchun konversion kartochkalarga valyuta almashtirish miqdoriga qo'yilgan cheklov olib tashlandi. Keyinroq bu masalada ham to'la erkinlik o'rnatildi.

Salbiy ta'sirlarning oldi olindi

Uzoq vaqt ko'nikib qolingan sharoit o'zgarishining yuridik va jismoniy shaxslar hayotiga vaqtinchalik salbiy ta'siri ham bor. Shu bois, mütasaddi tashkilotlar ularni yumshatish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ko'rdi.

Masalan, valyuta siyosatini liberallashtirish jarayonida bank tizimi uchun vujudga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarning oldini olish, tayanch tarmoqlar korxonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur choralar ko'rish, ayniqsa, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlari turmush darajasiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini kamaytirish maqsadida manzilli choralar ishlab chiqildi va bajarildi.

Milliy pul birligining joriy etilishi mustaqil davlatchilikning muhim ramzlaridan biri bo'lib, u davlatning o'zligini aks ettiruvchi, dunyoga tanituvchi muhim omillardan. Valyuta bozorini erkinlashtirish va valyuta ayiriboshlash kursida bozor mexanizmlarini joriy etish esa mamlakatimizda pul va valyuta siyosatini tashkil etish hamda boshqarishning xalqaro standartlarga mos keladigan yangi bosqichini boshlab berdi.

30 yildan beri so'm yuridik va jismoniy shaxslar uchun o'zaro iqtisodiy aloqa o'rnatish ekvivalentligini ta'minlovchi muhim vosita sifatida xizmat qilyapti. Iqtisodiyotda qiymat o'lchovi, muomala, jamg'arish va to'lov vositasi vazifalarini samarali bajaryapti. **Uning konvertatsiyasi joriy qilinishi esa investitsiya va ishbarmonlik muhitini tubdan yaxshiladi, iqtisodiy o'sish sur'ati yuqori bo'lishi va xalq turmushi darajasining keskin oshishi uchun mustahkam asos yaratdi. Yangi O'zbekistonning mustahkam iqtisodiy poydevorini yaratish jarayonida faol ishtirok etyapti.**

Shukuh



Dilorom YORMATOVA, professor

Boshlanishi 1-betda

Non — bebaho, ta'rifga so'z yetmaydigan, inson uchun tengi yo'q qiymatga ega, muborak in'om. Uni hayotga mengzashga haqlimiz. "Avesto"da nonning tabarrukligi e'tirof etilib, bug'doyga bunday ta'rif beriladi: "... Tuproqda bug'doy o'stirilganda devlar terga tushib qiynaladi. Qachonki donni xirmonda sovurishga tushganda devlar kuchsizlanib, o'z holga tushadi. Qachonki uy bekalarini qozonida undan ovqat pishira boshlaganida devlar qo'rqqanidan shamoldek uchib g'oyib bo'ladi".

Dalalarda boshini egib, sollanib turgan bug'doy boshoqlarini fermer yoki dehqon 9-10 oy mobaynida dalada yelib-yugurib yetishtiradi. O'yulab ko'ring, yerga tushgan bir dona don non bo'lguniga qadar qancha odam ter to'kadi? Yerga tushgan don o'z-o'zidan nonga aylanib qolmaydi-ku!

Gapni nega uzozdan boshladik. Chunki bugun dunyoning qaysidir joyida o'charchilikdan aziyat chekayotgan odamlar soni ikki barobar ortib, 1 milliard 600

milliondan oshib ketdi. Ekologiya, tabiat injiqliklari, turli ofatu talafotlar tufayli zarur oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish ham ancha murakkablashib bormoqda.

Shu bois, O'zbekistonda aholini oziq-ovqat bilan to'la-to'kis ta'minlash masalasi eng birinchi vazifa sifatida belgilab olingan va bu maqsaddagi sa'y-harakatlar samara bermoqda. Ko'rilayotgan chora-tadbirlar tufayli dalalarda zamonaviy texnologiyalar qo'llanib, don yetishtirish hajmi yildan yilga oshib boryapti. Vaholanki, bir vaqtlar respublikamizda serhosil bug'doy navi deyarli yo'q edi. Shu bois, xashaki bug'doy sifatida yaratilgan "Ulug'bek-600" navi katta maydonlarga ekilardi. Ushbu navdan yopiladigan nonning xamiri taniqda turmay, oqib ketaverardi.

Bundan tashqari, dehqon tanlashi mumkin bo'lgan "Bezostaya-1", "Intensivnaya" navlari suvli yerga va "Qizil sharq", "Suxrak" kabi navlar lalmi maydonlarda ekilardi, xolos. Bugun esa respublikamiz dalalarida davlat reyestriga kiritilgan 76 ta yumshoq

va 13 ta qattiq bug'doy navi ekilib, yuqori hosil olinmoqda. Hosildorlikni gektariga 75-85 yoki 100 sentnerga yetkazayotgan fermerlarimiz safi kengayib boryapti.

Albatta, yuqori hosil olish zamirida katta mehnat yotadi. Yangi navlar yaratilishida soha olimlari, tajribali fermerlar hamkorligi samara beradi. Ana shu omilkorlik tufayli hozir Germaniyada gektaridan 75,3 sentnergacha, Fransiya 68 sentnergacha, Misrd 64 sentnergacha, Xitoyda 57 sentnergacha bug'doy hosili yetishtiriladi. Bu borada rekordchilar ham yo'q emas. Xususan, 2020-yilda yangi zelandiyalik fermer bir gektar yerdan 174 sentner hosil olishga erishgan bo'lsa, buyuk britaniyalik fermer mazkur ko'rsatkichni 179,6 sentnerga yetkazgan.

Yurtimizda ham bug'doydan yuqori hosil olish uchun qator ishlar qilinmoqda. Avvallo, mamlakatimiz qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun yangi qaror va qonunlar hayotga tatbiq etilmoqda. Sohaga xorij texnologiyasi izchil joriy qilinayapti. Chetdan

keltirilgan serhosil, hasharot va kasalliklarga nisbatan chidamli bug'doy navlari ekologik sinovlardan o'tkazilmoqda. Pirovardida ishlab chiqarishga serhosil, yangi seleksion navlar kirib kelib, ular ekiladigan maydon 600 ming gektardan oshdi.

G'alla hosildorligi o'rtasiga yana bir sabab shuki, fermer xo'jaliklariga don yetishtirish uchun ajratilgan imtiyozli kredit mablag'idan erkin foydalanish hamda xizmat ko'rsatuvchi va resurs yetkazib beruvchilarni ixtiyoriy tanlash huquqi berildi. Donni davlat tomonidan xarid qilish va sotish narxi bekor qilinib, birja mexanizmi joriy etilgan g'alla yetishtiruvchilar manfaatdorligini ta'minladi. Shuningdek, joriy yilda qariyb 5 mingga yaqin fermer 285 ming gektar yerda o'z mablag'i hisobiga g'alla yetishtirgani ham ishlohtalarning yorqin ifodasidir.

Bugun sakkiz qatorli texnikalardan foydalanish g'allani ekish jarayonini tezlashtirib, 12-14 kunda yakunlash imkonini berdi. Binobarin, bu texnika oldingisi ikki kunda uddalagan ishni bir kunda bajaradi.

Endi fermerlarimiz suv taqchilligini his etib, mehnat qilyapti. Respublikamizda BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) bilan birgalikda yangi zamonaviy texnologiyalar ustida ishlanmoqda.

Mamlakatimizda g'alla hosili yil sayin oshib borishida ilmiy muassasalar ham alohida o'rin tutadi. Andijon viloyatidagi Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti va uning respublika hududidagi ilmiy tajriba stansiyalari, Qashqadaryodagi Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti hamda Jizzax viloyatidagi Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti shular sirasidan. Ularda faoliyat yuritayotgan seleksion olimlar yuqori hosildor, ertapishar bug'doy navlarini yaratasa, ikkinchidan, xorijdan keltirilgan, kasallik va hasharotlarga chidamli, serhosil navlarni respublikamiz tuproq-iqlim sharoitiga moslashtirib, fermer xo'jaliklari uchun tavsiya qilmoqda.

Samarqand viloyati Paxtachi tumanidagi "Mirzayev Shuhrat Kenjayevich" g'allachilik klasteri, Ishtixon tumanidagi "Ravot

Yangi yerlari", Kattaqo'rg'on tumanidagi "Begmurod Abdullayev Kumush dalasi" fermer xo'jaliklarida gektaridan 100 sentnerdan ortiq hosil olingani shunday sa'y-harakatlar samarasidir.

Bu borada andijonlik fermerlar ham yetakchilardan. Masalan, joriy yilda viloyatdagi "Durbek olmosi" fermer xo'jaligi hosildorlikni gektariga 95,6 sentnerga, "Oq buloq" fermer xo'jaligi 98,7 sentnerga, "Obod diyor" fermer xo'jaligi 98,4 sentnerga, "Egamnazarov Yorqinbek agro" fermer xo'jaligi 95,6 sentnerga yetkazdi.

Qashqadaryo viloyatidagi Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti olimlari tomonidan Qoraqalpog'istonning Taxiotosh tumanidagi "To'rayev Sultonmurodboy" fermer xo'jaligiga tavsiya etilgan "Turon" navidan 80 sentnerdan ortiq don hosili olindi. Umuman, respublika hududida 5 mingdan ortiq fermer xo'jaligi 100 sentnerdan yuqori, 18 mingdan ortiq fermer xo'jaligi 90 sentnergacha don hosili yetishtirgani e'tiborga molik.

Yaqinda Prezidentimiz Farg'ona viloyatiga tashrifi chog'ida Lola Murotova nomidagi qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan kasb-hunar maktabi ochilishida ishtirok etdi. Ushbu marosimda men ham qatnashib, davlatimiz rahbariga g'allakorlarimiz har gektardan 121 sentnergacha g'alla yig'ib oloyotganini aytdim. Prezidentimiz "Hali bu marra emas, nasib qilsa, biz gektaridan 140-150 sentnerdan don olishga yangi texnologiyalar natijasida erishamiz", dedi.

Chindan ham inson aql-zakovati, mehnati, g'ayrati bilan ko'zlangan maqsadlarga erishiladi. Qolaversa, mamlakatimizda fermer va dehqonlarni, g'allakorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar izchil amaliyotga kiritilmoqda. Yangi texnika va texnologiyalar ishga tushirilyapti. Olimlarimiz sifati va serhosil, turli stress omillarga chidamli navlarni yaratish uchun izlanishda. Hamkorlik, tajriba yaxshi yo'lga o'yilayotir.

Doni borming noni bor. U xotirjam yashashga haqli. Zotan, dunyodagi eng yaxshi, o'xshashi yo'q hid yangi yopilgan non va tinch uxlayotgan og'dak hididir. Dunyoda kuzatilayotgan turli vaziyatlar, global muammolar oziq-ovqat xavfsizligini asosiy masalaga olib chiqayotgan hozirgi davrda bu juda ahamiyatlidir.

O'ramizdagi odamlar

Nurmat aka traktorchi qilib boshlaganida hali yigirma yoshga ham kirmagandi. Otasidan shu hunarni o'rganib, xo'jalikda mehnat qilishni boshlagan damlarda kuch-g'ayrati bilagiga sig'masdan, tinim bilmay ishlardi. Rahbarlar uning xizmatidan doim mamnun, kerakli paytda har qanday og'ir ishni bajarib ketishini boshqalarga namuna qilib ko'rsatardi. Yosh yigit bundan yanada rag'bat olib, ishga sho'ng'ib ketardi. Traktorchiликni yaxshi o'zlashtirib olganimi yoki o'z ishiga mas'uliyatli bo'lgani sababmi, biror marta dalada texnikasi nosoz yotganiga hech kimning ko'zi tushmasdi. Mabodo biror joyda buzilib qoladigan bo'lsa, o'zi shu zahotiyog tuzatib, yana minib ketaverardi.

Shu zayilda yigirma yilga yaqin mehnat qilgan Nurmat aka xo'jaliklar tugatilib, fermer xo'jaliklari tashkil etila boshlagach, endi nima ish bilan shug'ullanishga boshi qotdi. Bir oz yangi ish boshlagan fermerlarning dalasida mehnat qilib yurdi. Qarasa, fermerlik yaxshi kasbga o'xshab ko'rindi. Yer o'zini, mehnat qilsa, rohatini ko'radi. Shartnoma tuzib, rejani bajarsa, oshig'i olchi. Faqat mehnat qilsa bo'lgani. O'zi shundoq ham umri dalada o'tmoqda. Undan ko'ra, shuncha qilayotgan ishni o'z yerga qilsa, foyda o'ziga qoladi-ku. Tezda harakatga tushib, fermerlik qilish istagida tuman hokimligiga ariza bilan murojaat qildi. Oz muddatda "Ashur ota" fermer xo'jaligini tashkil etdi. Ko'pchilik qatori unga ham o'zi yashayotgan Qamashi tumanidagi Gulshan mahallasi hududidan yer ajratib berildi.

Suyagi mehnatda qotgan Nurmat aka belni mahkam bog'lab, ishga kirishdi. Imkon darajasida boshqa fermerlardan kam bo'lmaslikka, o'ziga berilgan ishonchni oqlashga intildi. Natijada birinchi yilning o'zidayoq g'alla hamda paxta bo'yicha belgilangan shartnomaviy rejani ortig'i bilan bajardi. Keyingi yillarda ham yaxshi hosil olib, ilg'orlar qatoridan joy oldi. Tez orada faol fermerlar ro'yxatiga kiritildi.

Qishloq xo'jaligida hosildorlik, asosan, fasllar yaxshi kelishiga bog'liq. Bir yili dehqonlar uchun ancha og'ir yil keldi. Ayniqsa, suv muammosini hal etish mushkul

FERMERNI

56 yoshda oliy ma'lumotli bo'lishga



bo'lib qoldi. Shunday kunlarning birida tuman fermerlari yig'ilishga chaqirilib, sohadagi muammolar muhokama qilinadigan bo'ldi. Ishtirokchilar suv taqchilligi sabab hosildorlik tushib ketayotgani, bu yilgi rejani bajarish anchagina mushkul bo'lishini ta'kidladilar. U paytda yoshi ellikdan oshib, sohaning yetakchilari qatoridan joy olgan Nurmat aka ham so'z oladi. Kutilmaganda u boshqalardan farqli o'laroq, muammoni emas, balki uni bartaraf etish masalasi o'rta qo'ydi. Bu esa tumaning o'sha vaqtidagi ayrim rahbarlariga unchalik xush kelmaydi. Raislardan biri hosil yaxshi bo'lmasa, davlat joriy yil uchun rejani so'rmasligini aytib, tanbeh bergan bo'ladi. Ammo doim to'g'ri so'z bo'lgan Nurmat aka shuncha qilingan xarajat, mehnat behudaga ketmasligini, buning uchun kerakli choralarini ko'rish lozimligini aytdi. Shunda badjahl rahbar: "O'zi bir traktorchi bo'lsang, nimangga aql o'rgatasan", deya ko'pchilik o'rtasida dakk berdi. Bu gap uning nafsoniyatiga tegib, suyagigacha zirqirib yuboradi. Shu damda o'qiy olmagani pushaymon qiladi. Bu tushkun kayfiyatdan ancha vaqtgacha chiqolmay yuradi.

— Shu paytda ellik ikki yoshda edim, — deydi Nurmat Ashurov. — O'zi aslida, yoshligimda ikki-uch bor oliyogha o'qishga kirish maqsadida harakat qilganman. Afsuski, imkoniyatim yetmagani bois, uddasidan chiqqa olmaganiman. Yig'ilishda birgina aytilgan gap katta zarba bo'ldi-da. Yeng shimarib, shu qilgani uchun universitetga o'qishga kirganim bo'lsin, dedim-da, harakatim boshladim. O'zi bu paytda farzandlarim o'qiydigan yoshga yetib qolgan. Bolaligimdan oriyatli bo'lib voyaga yetganmiz. Shu g'urur ortga yo'l bermadi. Faqat xayolimda men o'qishim kerak, degan maqsad bor edi. O'sha yili qishloq xo'jaligi vazirligiga bu borada xat bilan chiqdim. U yerdagilar bu tashabbusimni ma'quulladi. Oilamdagilar esa hayron. Tezda hujjatlarini hozirlab, Toshkent davlat agrar universitetiga yo'l oldim. U yerga borib kelishdan maqsadimni aytarkanman, hech kim ishonmaydi. Ko'pchilik yoshim bilan qiziqadi. Ajablanarli tomoni, shu yillarda sirtqi ta'lim shakli yo'q ekan. Nima bo'lsa bo'ldi, deya kunduziga hujjat topshirdim. Maktabda yaxshi o'qiganim ish berdi. Imtihonga kirib, test savollariga qiynalmasdan javob topdim. Talaba bo'lganimdan so'ng Toshkentga borib,

NIMA MAJBUR QILDI?

darslarga qatnasha boshladim. Faol talaba bo'lib o'qiyotganimni ko'rgan o'qituvchilar mendan ancha yosh kursdoshlarimga namuna sifatida ko'rsatadigan bo'ldi.

Shu paytda universitetning eng yoshi katta talabasi bo'lgan Nurmat aka to'rt yil davomida fanlardan a'lo baholarga o'qidi. Ta'lim olayotgan yo'nalishi aynan fermer xo'jaligi bo'yicha bo'lgani bois, o'z amaliyoti yanada chuqur o'rgandi. Ustozlardan kerakli maslahatlar oldi. Shu jarayonda fermerlikni ham davom ettirdi. O'zi o'qishda bo'lsa-da, doim farzandlariga kerakli topshiriqlarni berib, vaqtida g'alla rejasini bajardi. Paxta mavsumida kursdoshlari boshqa hududga hasharga ketganda u rektordan ruxsat olib, o'z dalasiga yo'l olardi. Terim yakuniga qadar xo'jaligiga bosh bo'lib, shartnomada belgilangan tonnani ortig'i bilan topshirib, yuzi yorug' holda yana darsga qaytardi.

Universitetni bitirib, bakalavr diplomini o'ziga olganida Nurmat Ashurov ellik olti yoshda edi. Diplomida yozilgani

kabi "Fermer xo'jaliklarini boshqarish va yuritish" mutaxassisligiga ega bo'ldi. Endi u hech kim o'qimagan, deya tanbeh bera olmasligi aniq edi.

Hozir "Ashur ota" fermer xo'jaligiga qarashli jami 129 gektar yer mavjud. Joriy yilda 45 gektar joyga g'alla ekib, klaster bilan tuzgan shartnoma rejasini ortig'i bilan bajargan holda 181 tonna bug'doy topshirdi. Shuningdek, yetti yuz kilogramma yaqin pilla yetishtirdi. 2 gektar joyni bodomzor, yana 2 gektarini tokzor qilib qo'yibdi. Ikki yuzga yaqin qo'y, qirqdan ortiq qoramol boqib, ko'p tarmoqli fermer sifatida ro'yxatga olingan. Ayni paytda esa 24 gektar yerga paxta ekib, parvarishlash bilan band.

— Mubolag'a qilyapti, deb o'ylamang, bugun barcha sohalari qatori fermerchilikni yuritish ham ancha osonlashdi, — deydi Nurmat aka. — Sababini dalada men kabi mehnat qilib yurgan kishilardan so'rashingiz mumkin. Misol uchun, ilgari bir hududda g'alla o'rini boshlanadigan bo'lsa, siz kechani kecha, kunduzni kunduz demasdan

mehnat qilib, hosilni yaxshi parvarishlaysiz. Natijada rejani yuz foiz bajarasiz. Ammo qo'shni fermer faqat dangasalik bilan kun o'tkazib, o'rini-yig'imga kelganda shartnomada ko'rsatilgan tonnaning yarmini ham arang qutuladi. Shunday paytda sizning dalangizda ortiqcha bug'doy bormi, so'rab o'tirmasdan o'sha qarzdor uchun o'rib ketishardi. Ishlagan ham, ishlagan ham bir edi-da. Bankdan naqd pul olishning ham, kredit olishning ham o'zi bo'lmasdi. Bugun barchasiga barham berildi. Mehnat qilgan kishining xirmoni donga to'lmoqda. Ro'z'origa baraka kiryapti. Hech bir muammo yo'q. Faqat ishlasa bo'lgani.

Qamashi tumani qishloq xo'jaligi sohasi mutaxassislarining ta'kidlashicha, Nurmat aka tumanda birinchilardan bo'lib dalasida tomchilatib sug'orishdan foydalanishni boshlab berdi. Buning afzalliklarini ko'pchilikka tavsiya qilib, joriy etgan dehqonlardan biri hisoblanadi.

Yana bir gap. U "Ashur ota" fermer xo'jaligi dala chetlarida bugun turli sabzavot ekinlari ekishni ham ancha yillar oldin boshlab yuborgan. Hozir esa suv tejamkorligini oshirish maqsadida dala arillarini betonlashtirib, boshqalarga namuna bo'lmoqda. Bugun ushbu fermer xo'jaligida Nurmat aka farzandlari bilan birga yana 12 kishini ish bilan ta'minlagan. Shu bilan birga, mavsum paytlari o'ttiz-qirq kishiga ish beradi.

Ayni paytda Nurmat Ashurov oltmish besh yoshga kirgan bo'lsa-da, hamon dalada. Qo'lidan ketmon oshirish maqsadida dala mehnatning noni shirin ekanini nabiralari qutirishdan charchamaydi. Gohida qiziquvchilar 56 yoshda diplom olishga nima hojat, deb so'rab qolgani, o'qishning erta-kechi bo'lmaydi, deya kulib javob beradi.

Akbar RAHMONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Nuqtayi nazar

MUAMMOLAR OCHIQ
AYTILGANDA..Turizmni rivojlantirish bo'yicha
ko'rilayotgan chora-tadbirlar samarasiAlisher ESHTAYEV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Islom hamkorlik tashkiloti tomonidan Xiva shahri 2024-yilda "Islom dunyosining turizm poytaxti" deb e'lon qilinishi bilan a'zo davlatlar turizm vazirlarining XII yig'ilishi qadimi shaharda o'tkazildi. Bular mamlakatimizda sayyohlarni rivojlantirish borasidagi keng ko'lamli ishlar samarasidir. Bu o'rinda turizm bozorida kuchli raqobat sharoitida O'zbekistonga xorijlik sayyohlarni faol jalb qilish, turizm obyektlaridan samarali foydalangan holda hududlarni o'zaro bog'lovchi turizm xizmatlarini ko'paytirish, sohada yangi ish o'rinlari yaratish, salohiyat va imkoniyatimizni chet elda manzilli targ'ib qilish maqsadida qabul qilingan hujjatlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, davlatimiz rahbari raisligida shu yil 3-iyunda bo'lib o'tgan yig'ilishda tarmoq hamda hududlar rahbarlari joriy yilda 11 million xorijlik sayyohni olib kelish va turizm eksportini 2,5 milliard dollarga yetkazish uchun mas'ul va javobgar bo'lishi belgilandi. Hozirgi murakkab geosiyosiy va iqtisodiy vaziyatda turizm kabi yangi ish o'rin yaratadigan, investitsiya hamda eksportni ko'paytiradigan sohalarni qo'llab-quvvatlash zarurligi ta'kidlandi.

Mutasaddilarga 1-oktabrga qadar «milliy turizm brendi» to'g'risida kontent yaratish uchun tanlov o'tkazib, xalqaro platformalarda targ'ibotni yo'lga qo'yish vazifasi topshirildi. Buning uchun joriy yilda 5 million dollar mablag' ajratilishi, auditoriyasi 10 milliondan ortiq bo'lgan kamida 50 nafar chet ellik

bloger uchun infoturlar tashkil qilinishi belgilandi. Jahon turizm bozorida keskin raqobat kuchayib, turizmning ommabop turlari kengayib borayotgan bir paytda joriy yilda Toshkent shahrida, keyingi yili Xivada Xalqaro gastronomik festivallari o'tkazish, 300 turdan ziyod taomga ega milliy oshxonamizni butun dunyoga targ'ib qilish muhimligi qayd etildi. Soha uchun xalqaro darajadagi raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadida Shahrisabz turizm texnikumida Shvetsariya dasturi asosida yiliga 100 nafar mutaxassis tayyorlash tizimi yo'lga qo'yiladigan bo'ldi. Mutasaddi vazirlik va idoralarga elektron viza tizimini yanada takomillashtirib, mobil ilovani ham ishga tushirish, ekstremal turizmni rivojlantirish dasturini qabul qilish topshiriqlari berildi.

Yig'ilishda soha vakillari va tadbirkorlar bilan muvotiq qilib, ularning muammolari, takliflari ham eshitildi. Xo'sh, bugun ularni qanday masalalar qiynamoqda? Ularning aytishicha, turizm xizmatlari ko'rsatuvchilarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, turoperatorlarni madaniy meros obyektlari va temir yo'l chiptalari narxlaridagi o'zgarishlar to'g'risida oldindan xabardor qilish, mehmonxona boshqaruvchilarini tayyorlash va mehmonxona qurishga subsidiyalar doirasini kengaytirish, pensiya yoshidagi turistlar alohida viza tartibini joriy etish zarur.

Davlatimiz rahbari bildirilgan fikr va takliflardan kelib chiqib, tegishli vazirlik va idoralar rahbarlariga xorijlik sayyohlarga xizmat ko'rsatgan turoperatorlarga qo'shilgan qiymat solig'ini subsidiya sifatida qaytarish muddatini uzaytirish va uni qo'llash tartibini aniqlash, turizm kompaniyalariga aylanma mablag' uchun eksportoldi moliyalashtirishni yo'lga qo'yish, turistlariga mo'ljallangan, yangi ishlab chiqarilgan "Yevro-5" va undan yuqori ekologik toifa talablariga to'g'ri keladigan avtobus va mikroavtobuslarni bojxona boji hamda utilitatsiya yig'imidan ozod etish muddatini uzaytirishga ko'rsatma berdi.

Shuningdek, so'nggi 3 yilda tashkil etilgan turkompaniyalarga xalqaro ko'rgazmalardagi pavilyon ijarasi xarajatining 50 foizini qoplab berishni, xalqaro festivallarda qatnashadigan hunarmandlarga pavilyon, yuklar va aviachipta xarajatining 50 foizini qoplab berish tizimini yo'lga qo'yish yuzasidan taklif kiritishni topshirdi.

Prezidentimizning yaqinda Farg'ona viloyatiga tashrifi davomida ham turizm

fakultetida Italiya, Fransiya va Shvetsariya o'quv dasturlari joriy qilinishi, xorijlik mutaxassislar olib kelinishi, Qo'qondagi "Tepago'rg'on" arxeologik yodgorligini turistlar uchun jozibador marshrutga aylantirishga 10 milliard so'm ajratilishi belgilandi. Qo'qon aeroportidan Toshkentga har kuni, Samarqand, Buxoro va voha shaharlariga esa har hafta aviaqatnov yo'lga qo'yilishi aytiladi. Marg'olonga har yili 250

ko'paytirish zarurligi ta'kidlandi. Shu bois, Marg'olonda 5 ta mehmonxona, Shoirlar va san'atkorlar xiyoboni, Maqom teatri, 50 dan ortiq savdo va xizmat ko'rsatish obyekti quriladi.

Turizm sohasida kadrlar ham muhim o'rin tutadi. Prezidentimizning 2024-yil 18-iyuldagi "Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida 2024/2025-o'quv yilidan boshlab davlat oliy ta'lim muassasalarida turizm va mehmonxona xo'jaligi sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimi uch yillik ta'lim dasturlari asosida yo'lga qo'yiladi. O'quv jarayoni "blok modul" tizimiga asoslangan dual ta'lim shaklida tashkil etiladi. Bunda o'quv jarayonining nazariy va amaliy mashg'ulotlar ulushi birinchi bosqichda 80 foiz nazariy va 20 foiz amaliy, ikkinchi bosqichda 50 foiz nazariy va 50 foiz amaliy, uchinchi bosqichda 30 foiz nazariy va 70 foiz amaliy bo'lishi nazarda tutilmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Chunki bu orqali turizm sohasida kadrlar tayyorlashning dual ta'lim shakli faqat o'quv muassasasida emas, balki amaliyot bazalarida ham yo'lga qo'yiladi. Bunday o'qitish tizimi Germaniya, Shvetsariya, Fransiya, Ispaniya, Malayziya, BAA va boshqa qator rivojlangan davlatlarda mavjud.

Turizmni, ayniqsa, gastronomik turizmni rivojlantirishda pazandalik muhim ahamiyatga ega. Lekin mamlakatimizda aynan shu soha bo'yicha oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimi mavjud emas. Vaholanki, milliy taomlar sayyohlarni jalb etuvchi eng asosiy omillar siraqcha kiradi. Shu bois, dunyo sayyohlik sanoatida ushbu masalaga jiddiy ahamiyat qaratiladi. Masalan, Irlandiyaning Dublin texnologiyalar universitetida bu soha bo'yicha kadrlar tayyorlanadi. Talabalarning alohida amaliyot bazasi bor. Bu yerda talabalar tayyorlagan mahsulotlarni iste'molchilarga to'g'ridan to'g'ri sotiladi. Tushgan daromad esa talabalarga beriladi.

To'g'ri, bugun mamlakatimizdagi 30 dan ortiq ta'lim muassasasida 12,5 mingdan ziyod talaba turizm va mehmonxona xo'jaligi ta'lim yo'nalishida tahsil olmoqda. Biroq ayrim OTMlarning amaliyot bazasi mavjud emas. Talabalar faqat nazariy bilimga tayanib o'qitilmoqda. Bu esa tajribasiz mutaxassislar tayyorlanishiga olib kelayotgan edi. Qarorda belgilangan oliy ta'lim muassasalarida turizm va mehmonxona xo'jaligi sohasidagi kadrlarga buyurtmalarni shakllantirishda yo'nalishlarga oid amaliyot bazalari mavjudligi qat'iy nazoratga olinishi ushbu muammoning yechimi bo'ldi, deyish mumkin.

Shuningdek, qarorga asosan, arab, yapon, xitoy, hind, ispan, italyan, koreys, urdu, indonez va malay tillarida xizmat ko'rsatuvchi gid-tarjimonlar tayyorlanadi. Qolaversa, turizm, servis, mehmonxona xo'jaligi va gid (gid-tarjimon) tayyorlash sohasidagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha pedagoglar uchun o'rta va qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etish maqsadida turizm sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish markazi ochiladi.

Bundan tashqari, hozir turizm va mehmonxona xo'jaligi bo'yicha dars beruvchi professor-o'qituvchi hamda pedagoglar malakasini oshirish tizimi yo'lga qo'yilmagan. Faqat pedagogik mahoratni oshirish bo'yicha kurslar tashkil etiladi, xolos. Bu esa mutaxassislarning kasbiy mahoratini oshirishga, sohadagi yangiliklar, huquqiy me'yoriy hujjatlardan xabardor bo'lishga xizmat qilmaydi. Turizm sohasi uchun kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi ochilishi bu borada ayni muddao bo'ldi.

O'zbekiston jahon turizm bozorida eng jozibador mamlakatga aylanoqda. Bu bir jihatdan yurtimizda turizm taraqqiyotiga katta e'tibor qaratilayotgani samarasi bo'lisha, ikkinchidan, mamlakatimiz azaldan dunyo tamadduni xazinasi bo'lgan tarixiy obidalariga boyligi, xalqimizning bag'rikeng va mehmondo'stligi tufaylidir.



To'g'ri, bugun mamlakatimizdagi 30 dan ortiq ta'lim muassasasida 12,5 mingdan ziyod talaba turizm va mehmonxona xo'jaligi ta'lim yo'nalishida tahsil olmoqda. Biroq ayrim OTMlarning amaliyot bazasi mavjud emas. Talabalar faqat nazariy bilimga tayanib o'qitilmoqda. Bu esa tajribasiz mutaxassislar tayyorlanishiga olib kelayotgan edi

sohasiga doir qator ishlarni bajarish bo'yicha vazifalar qo'yildi. Jumladan, yangi o'quv yilidan Qo'qon universiteti turizm ming mahalliy va 75 ming xorijlik turist kelayotgani, bu ko'rsatkichni oshirish uchun mehmonxona va xizmat ko'rsatish joylarini

Taraddud



Yozning so'nggi oyi boshlandi. Ushbu oyda ta'lim muassasalarida yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ishlari jadallaydi. Navoiy viloyatidagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham 2024/2025-o'quv yiliga tayyorgarlik doirasida qator chora-tadbirlar ko'rilmoqda va ayni vaqtda yakuniy jarayonlar ketmoqda.

Jumladan, Qiziltepa tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarida yangi o'quv yilida o'quvchilar sifatli ta'lim olishi uchun yetarli sharoit yaratildi.

Tumanimizda qirqdan ziyod umumiy o'rta ta'lim maktabi mavjud. Ularni yangi o'quv yiliga tayyorlash, ta'mirlash ishlari uchun mahalliy byudjetdan 200 million so'mdan ziyod mablag' ajratildi. Qurilish materiallari va zarur jihozlar xarid qilinib, maktablarga tarqatildi, — deydi Qiziltepa tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi maxsus ekspluatatsiya xizmati rahbari Sirojiddin Rahmonov. — Shuningdek, investitsiya dasturi asosida 2 ta maktabni mukammal ta'mirlash ko'zda tutilgan. Buning uchun 10 milliard so'mdan ziyod

mablag' yo'naltiriladi. 20-maktabning 180 o'rinni binosi mukammal ta'mirlandi hamda 330 o'rinni yangi o'quv binosi qurilishi davom etmoqda. Buning uchun 5 milliard so'mdan ziyod mablag' ajratilgan. 27-maktabda ham xuddi shunday jarayon davom etmoqda. Yangi o'quv binosi qurilishi evaziga o'quvchi o'rni ikki barobar ko'payadi.

Tuman markazidagi 4-maktabda yangi o'quv yiliga tayyorgarlik doirasida "Tashabbusli budget" orqali qo'lga kiritilgan mablag' evaziga yangi mebellar, zamonaviy doskalar va sport jihozlari xarid qilindi. Sinfxonalar ta'mirdan chiqarilib, so'nggi pardozlash ishlari yakunlandi. Axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan ushbu o'quv muassasasidagi informatika xonasi zamonaviy kompyuterlar va internet tarmog'i

bilan to'liq ta'minlandi. Shuningdek, yo'l harakati qoidalarini o'rgatish va ma'naviyat xonalari hamda 200 o'rinni anjumanlar zali ham zamonaviy jihozlandi. Bu ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, albatta.

Toshkent qo'rg'onidagi 26-maktab bundan 4 yil avval davlat dasturi doirasida mukammal ta'mirlangan edi. Ikki qavatli, zamonaviy binoda o'quvchilarni ikki navbatda o'qitish uchun barcha sharoit yaratilgan. Zamonaviy jihozlangan maktab binosidagi har bir xona shinam va yorug'ligi bilan ajralib turadi. Shu yil "Tashabbusli budget"dan qo'lga kiritilgan mablag' evaziga kichik stadion va sport maydonchasi qurilishi maktab o'quvchilarini mamnun etdi.

— Maktabimizda mingdan ziyod o'quvchi bor. Ularning sifatli ta'lim olishi uchun 110

o'qituvchimiz har doim izlanishda va yangi uslublarni amaliyotga tatbiq etib kelmokda. Yangi o'quv yiliga ham maktabimizda puxta tayyorgarlik ko'rdi, — deydi tumandagi 26-maktab direktori Nargiza Rustamova. — Maktabimizning ikkinchi qavati to'liq yangidan ta'mirlandi. O'qituvchilar va ma'naviyat xonalari, kutubxona va faollar zaliga yangi sovitkichlar, fizika va kimyo fanlari xonalariga interaktiv doskalar o'rnatildi. Axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan sinfxonamizga 16 ta zamonaviy kompyuter olib kelindi. Shuningdek, mahalliy byudjet mablag'i evaziga kash-hunarga ixtisoslashgan sinfxonamiz tikuv mashinalari va boshqa zarur vositalar bilan to'liq jihozlandi.

Oqrobot mahallasidagi 25-maktab obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish borasida barcha ta'lim maskanlariga namuna bo'lib kelmokda. Maktab hududida chorbog',

"Uch avlod bog'i" barpo etilgan va atrofini gulguzorga aylantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Maktab foyesidagi yashil burchak esa kishiga estetik zavq bag'ishlaydi.

Shuningdek, hududdagi 27-maktabning yangi o'quv yiliga tayyorgarlik jarayoni ham boshqa maktablardagidan qolishmaydi. Yaqinda ta'lim muassasasida mashg'ulotlar uchun zarur zamonaviy jihozlar keltirildi. Sport va faollar zallari yanada shinam va ko'rkam qiyofa kasb etdi. Yangi qurilgan sun'iy qoplamali futbol maydonchasi ta'til kunlari ham o'quvchilar bilan gavjum.

Mahallalarning "Obod qishloq" dasturiga kiritilishi natijasida obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlari qatori yangi ta'lim maskanlari qurilishiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu dastur asosida tumandagi 29-maktab uchun yangi bino qurilib, foydalanishga topshirildi. Ayni vaqtda yangi o'quv yilida o'quvchilar sifatli ta'lim olishi uchun barcha sharoit yaratilgan.

— Maktabimiz 520 o'rinda mo'ljallangan bo'lib, zamonaviy sharoitlarga ega. Shunga mos ravishda ta'lim sifati ham yildan yilga oshib bormoqda. O'tgan o'quv yilida qariyb barcha bitiruvchimiz talaba bo'ldi. Maktabimizda yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rish bilan birga o'quvchilarning ta'lim vaqti bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish bo'yicha ham muayyan ishlar qilindi. "Besh tashabbus" doirasida maktabimizda turli sport va boshqa to'garaklar faoliyat yuritmoqda. Ular o'quvchilar bilan doim gavjum, — deydi tumandagi 29-maktab direktori Shodiya Beknazarova.

Bugun Navoiy viloyatida 366 ta maktab mavjud bo'lib, ularning barchasida yangi o'quv yili uchun tegishli dastur asosida tayyorgarlik ishlari bajarildi. E'tiborsiz, olis hududlardagi ta'lim maskanlari ham zamonaviy o'quv vositalari bilan ta'minlanmoqda. Bu esa ta'lim sifatini oshirish masalasi faqat quruq gapda emas, amalda ta'minlanayotganidan dalolatidir.

G'olib ABDUSALOMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

NAVOIYDA MAKTABLAR
YANGI O'QUV YILIGA TAYYORLANMOQDA

Bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!

DUNYODAGI ENG ULUG' EZGULIK

JAHON SAHNIDA O'ZGALARGA QARAM BO'LMAY, O'Z YUKINI O'ZI KO'TARIB YASHASH ZAVQI, G'URURI BOSHQACHA!



Qutlibeka RAHIMBOYEVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi

Istiqlolning ilk kunlari biz — bir guruh ijodkorlarni davraga yig'ishgan. Unda o'n nafar yosh ijodkorga «Istiqlol qasidasi»ni yozish aytilgandi. Maqsad mustaqillik qadri xalqimizga anglatish edi. Yozdik. Qasidaning menga ajratilgan qismi «Boshing toshdan bo'lsin, hurriyat endi», deb tugallangan edi. E'tirozlar bo'ldi.

«Qutlibekaning satrlari qasidadagi ko'tarinki kayfiyat, tantanali ruhni tushirib yuboradi», degan fikr aytili. Ammo men «Ozodlik hayotning eng katta ezguligi, lekin ozod yashash — oson yashash, degani emas, bu haqiqatni boshidanoq xalqimiz ongiga singdirishimiz kerak», dedim. Qo'llovchilar topildi va qasidaga mening ham «Hurriyat, qiyalib ketarsan, qiyalib ketarsan biz bilan» satri bilan boshlangan satrlarim qo'shilib chop etildi. Nima demochimani? O'tayotgan o'ttiz uch yil fikrdoshlarim haq ekanini ko'rsatib turibdi. Oson yashamayapmiz, lekin ozodlikning mashaqqatlari ham totli.

O'tgan yoz boshlarida edi, Qoraqalpog'istonning Beruniy tumanida yashaydigan singlim qo'ng'iroq qilib qoldi. — Opa, qo'shning o'n yashar nevarasini operatsiya qildirgani Toshkentga ketdi. Chilonzordagi jarrohlik markaziga borarkan. Kam ta'minlangan oila bo'lgani uchun operatsiya xarajatlari davlat hisobidan qoplanar ekan. Toshkentda hech kimi yo'q, uzoq yo'l bo'lgani uchun oilasidagilar ham yo'qlay olmasa kerak. Xabar olib turing, — dedi.

Telefon orqali topib bordim. Darhaqiqat, bolakayning yuragida jiddiy nuqson bor. Bir haftalik tayyorgarlikdan so'ng jarrohlik amaliyoti o'tkazildi, to'rt soat davom etgan operatsiyadan to'rt-besh kun o'tgach, ilk ko'rganimda hansirab nafas olayotgan Javohirning rangiga rang kirib, harakatlari chaqqongina bo'lib qolgandi.

— Bu savob ishlarning boshida turganlardan bir umr minnatdorman. Ikki

dunyo saodati yor bo'lsin hammasiga. **Bunday murakkab jarrohlikka pulimiz yetmasdi. Davlatimiz tomonidan yordam berildi.** Bundan quvonib, nevaramni hayotga qaytargan shifokor Umidjon: «Qo'l haqi, inim. Oz bo'lsayam ko'pcha ko'ring», deb tishimning kovagida asrab yurgan besh-o'n so'mimni sekingina uzatsam, koyib berdi: «Bolani yaxshilab ovqatlantiring, quvvatga kiriting. Mening xizmat haqimni hukumat to'lab qo'ygani», dedi. Quvonganimdan rosa yig'ladim, shunday zamonlarga ham yetibmiz, O'ziga beadad shukrlar aytdim.

Men o'sha ayol — Qutlibekaga, adashim ekan, qo'shilib ko'zda sevinch yoshlarim bilan zamonamizni, uni oddiy odamlar uchun ham yaxshi imkonlar makoniga aylantirgan insonlarni duo qildim. Aslida, bu shukronalikka ham qushday uchib kelmadi. Barchamiz yaxshi biladigan mashaqqatli yo'ldan o'tib keldik.

O'ninchi sinfda o'qirdim. Onam institutda sirdan o'qirdi, o'sha paytda sessiyaga ketgandi. Men ham o'qishga ketaman, deb hujjatlar tayyorlab yurganimda to'qqiz yashar ukamni uyimizda ishlayotgan usta mototsikliga mindirib aylantirgani olib chiqqan. Notoqis yo'lda tez yurgan bo'lsa kerak, ukam mototsikl orqasidan uchib ketgan. U paytda ichki a'zolarni ko'radigan apparatlar yo'q, shifokorlar ukamning badani, bosh-oyog'ida jarohat bo'lmagan uchun: «Qo'rqibdi, o'tib ketadi», deb ortiqcha e'tibor berishmagan. Ukam tongga yetmagan, qo'rquvdan o'ti yorilib ketgan ekan...

Agar manglayimizga istiqloq yozilmaganda, «xalqim» deganda yuragidagi mehru muhabbat ham qo'shilib keladigan insonlar yurt fidoyilari bo'lmaganda bundan qishloqning loy ko'chalarida hansirab, lablari ko'karib yashayotgan Javohir, javohirlar ham mening erta xazon bo'lgan ukamga qismatdosh bo'larmidi...

Jayhun tarafdarda «Qaysi o'tingga kuyay...», degan ibora bor. Men bugunimiz

yuksakliklarida turib «Qaysi baxtingga quvonay, qay biriga quvonsam ham shodlik ichimdan daryoday toshib kelyapti...», degim keladi.

Farg'ona viloyatining Quva tumani menga yaqinroq, institutni bitirgach, bir yil Akbarobod qishlog'ida muallimlik qilganman. Shu qishloqda Hilolaxon Usmonova degan bog'cha mudirasi bor. Eri Shuhratjon chorvachilik bilan shug'ullanadi. Yurtimizdagi minglab oddiy oilalarning biri. Ularning uch farzandi bor. Nari-berisi yetti-sakkiz yil oralg'ida to'ng'ichi Shohjahon Toshkent davlat yuridik universitetini, o'rtanchasi



Shukrona Farg'ona davlat universitetini, avval Farg'onadagi Temurbeklar maktabida o'qigan kenjayot Shohinur Ichki ishlar akademiyasini tugatdi. Hozir bunday oilalar har bir shahar qishlog'imizda o'nlab, yigirmalab topiladi. Holbuki, men o'sha qishloqda ishlagan yetmishinchi yillar oxirida ham iste'dodli bolalarimiz, farzandlarining oliy o'quv yurtlarida o'qishini orzulagan o'talar-nalar juda ko'p edi. Mening sinfmda o'sha paytda 27 o'g'il-qiz tahsil olgan bo'lsa, yarmidan ziyodrog'ida iqtidor bor edi. Ammo boryo'g'i ikkitasigina oliy ma'lumotli bo'ldi. Chunki o'sha paytda millat yuksalishi uchun poydevor bo'ladigan istiqloq yo'q edi.

Mana, endi maktabni bitiruvchi farzandlari bor oilalarning mol sotib, mashinasini sotib, beliga pul bog'lab oliygohlar atrofida izillab yurgan kunlari, «Yo zaring, yo zo'ring bo'lmasa, institut, universitetning ostonasini bosib yurma, baribir noumid qaytasan» tarzidagi yaqin o'timshdagi gap-so'zlar, shunchaki gap-so'zlar emas, poraxo'rliklar, firibgarliklar, qallobliklar — bari orqada qoldi-ku. Endi yomon tushday eslanadi u illatlar.

O'zbek maktabini bitirgan o'quvchi iqtisodiyot yo'nalishidagi universitetning yevro guruhiga hujjat topshirdi. Bu voqeani eshitganimda: «Birov o'rniqa kirib,



imtihonni topshirib ham berdi, kirib ham oldi, deylik. Qanday o'qiydi?», deb hayron bo'lsam, bunday ishlar orasida yurgan banda: «E, opa, yog'ochni stulga bog'lab qo'yib, shu o'qiydi, desa, o'qiyveradi, puli bo'lsa, bas...», degandi.

Ehtimol, bugun shu tarzidagi illatlar ichida yashaganimizga ishonilari, ammo erta-indin — mustaqillikning qirq, ellik yilliklaridagi

Istiqlol faqat tiriklarning emas, boqiy dunyoga ketganlar qadri ham tikladi. Rasmiy ma'lumotlardan o'qiyamiz: «2021-2024-yillar oralg'ida siyosiy qatag'on qurbonlaridan 1200 dan ziyodining nomi o'qlandi...». Ularning kaltaklangan, qontalash, majruh jismlari allaqachon tuproqqa qo'shilib ketgan. Lekin ruhlari chiqirib yurmaganmide? Ular ham adolatdan umidvor emasmi? Ayniqsa, **qulik nima, hurlik nimaligini ertaroq anglagani va fojiali qismatlariga muayyan darajada shu anglash sabab bo'lgani bois, ehtimolki, bugun o'ttiz uchga kirayotgan ozodlik ne'matlarida ularning haqlari ko'proqdir... Shu bois, jaddilarni, ularning g'oyalarini xalqqa tanitish yo'lida qilinayotgan barcha sa'y-harakatlarga istiqloq daraxting chiroyli mevalari, deb qarasa, to'g'ri bo'ladi.**

Qadr haqida o'ylaganimizda yana ko'p yaxshiliklar yodimizga keladi. Shu yil bahor o'rtalarida Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi vakillaridan iborat delegatsiya Turkiyaning Istanbul, Bursa shaharlarida bo'ldi. Turli sabablardan o'sha mamlakatda yashayotgan ayollar orasida sayyor qabullar tashkil qilishdi. Uch yuzga yaqin yurtdosh xotin-qizning muammolari o'rganildi. Ba'zilariga huquqiy, ba'zilariga tibbiy, ba'zilariga moddiy yordam ko'rsatildi. Vatanimizga qaytishga mablag'i bo'lmay, sarson yurganlarining bir nechtasiga chipta olib berildi.

Xuddi shunday safar oradan ko'p vaqt o'tmay Rossiyaning Sankt-Peterburg shahriga bo'ldi. Vakillarimiz yurtdosh ayollarimiz mehnat qilyotgan korxonalariga, Mehribonlik uylari, hatto tug'uruqxonalarga bordi. Ish, yashash sharoitlari o'rganilib, zarur yordamlar berildi. «Berildi, borildi», deb osongina aytyapmiz. Aslida, har birining orqasida bir necha vazirlikning mehnati, mablag'i bor. Xorijdagi tashkilotlar bilan muomala, munosabatga kirishishning o'ziga yarasha qiyinchiliklari ham bo'ladi. **Hamma og'irliklar nima uchun zimmaga olinayapti, nega bu qiyinchiliklarga peshvoz boryapmiz? Chunki o'z ozodligiga erishgan, birova qaram bo'lmagan mamlakat o'z fuqarolarini o'zida ham, tashqarida ham himoya qiladi, degan bebaho bir tamoyil amalda ko'rsatish uchun.** Bu millat fuqarolarining taqdiri endi begona shamollar chorrahasida qolib ketmasligini, ularning egasi borligini namoyon qilish uchun. Taqdir taqozosi bilan xorijda yashayotgan o'zbekistonlik xotin-qizlarning bu tashriflardan so'ng yerli aholi oldida bir qadar ko'ksi ko'tarilgani bor gap. Atrofda qolgan «Bularning orqasida davlat

bor», degan hayiqish, ehtimolki, hurmat uyg'ongani ham haqiqat.

Hozirgacha yozganlarimni o'qib, satrlarda men bilan izma-iz kelayotgan biror o'quvchi: «Shoiralingizga borib juda hayajonga berilib ketyapsiz, o'zingizga juda yaqin sohalardan gapirsangiz bo'lardi. Masalan, kitoblar...», deb qolishi mumkin.

Ilk kitobcham yigirma sakkiz yoshimda G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotida chop etilgan. Pana-pastqamdagi shoiri emasdim. Zulfiyaxonimday o'z davrining shoiri davroni «oq yo'l» bergan, Asqad Muxtordek hurmatli inson rahbarlik qiladigan, norasmiy tarzda «Ozodlik oroli» deb ataluvchi «Guliston» jurnalining Abdulla Sher, Sulaymon Rahmon, Mahmud Sa'diy kabi eng inqilob xodimlari nazaridan o'tib, she'rlarim chop etilgan, shakllanib qolgan ijodkor edim. Buning ustiga, o'zim ham o'sha nashriyotning she'riyat bo'limida ishlardim. Lekin pinyozning po'stided 32 betli kitobcham uch ming tirda iqtisod qilingan qog'ozlar hisobiga nashr etilgan.

Hozir yurtimizning turli viloyatlaridan saralanib, Zomin seminariga kelgan yosh ijodkorlardan aksariyatining ilk kitobchalari hukumat tarafidan ajratilgan jamg'arma hisobidan ko'p nusxalarda chop etilmog'da. Maktabdan boshlab turli darajadagi o'quv maskanlariga bepul tarqatiladi bu kitoblar. Joylarda taqdimotlari o'tkaziladi. Qarabsizki, yigirma, o'n to'qqiz, hatto o'n sakkiz yoshli ijodkorlarning so'zlari ham bir jam bo'lib o'quvchilarga yetib bormog'da. Turkum o'z nomi bilan turkum. Kitobning mas'uliyati, ishonchi, quvonchi boshqacha bo'ladi. Ijodkorlarning shakllanishi tezroq bo'ladi kitob bilan. Xuddi shu o'rinda mustaqillikning adabiyot uchun eng qimmatli berilmishi so'z erkinligi ekanini boshqacha bir faxr, minnatdorlik bilan aytmog' kerak. Bugun adabiyot maydonida ko'zga ko'rinish qolgan Mansur Jumayev, Shohsanam Nishonova, Madina Norchayeva, Shahriyor Shavkat, Najmiddin Ertatov, Jontemir kabi ko'plab yoshlarga o'sha erkinlik jasoratli so'z aytilishga jasorat berganini e'tirof etmaslikning iloji yo'q.

Albatta, mehnat, matonat, jasorat bilan qadamlanayotgan yo'llarda hamma narsa xamirdan qil sug'urganday oson bitmaydi. Tavakkallar, xatolar, qurbonlar bo'ladi. Bu holatlarni ma tabiiy qabul qilishimiz kerak. «Toqqa chiqmasang do'lona qayda...», deb qo'yibdi dono xalqimiz. Xatolar, uning orqasidan kelayotgan ba'zi qiyinchiliklar ham o'zimizniki. Agar o'zimiz hozirgidan ham shiddatliroq, sadoqatliroq, fidoyiroq, jonkuyarrok bo'lsak, hurriyatimizning o'ttiz to'rti, qirqida, elligida erishadiganlarimiz erishganlarimizdan bir necha marta oshiqroq bo'lishi aniq. Nima bo'lgandayam, **jahon sahnasida bironing qo'lga, ko'ziga termilmaydigan, yuziga sarg'aymaydigan, o'z yukini o'zi ko'tarib yashashga qodir millat bo'lib yashashning zavqi boshqacha, g'ururi boshqacha!**

Ana shu g'urur, surur zavqi uchun ming jon bo'lsa, tiksang arziydi. Ming mashaqqatlarga chidasang arziydi. Istiqloq bayrami shunchaki quvonch bekatini emas, qishloq xo'jaligi sohasidam, sanoatdam, sayyohlikdam, umumam, hayotni harakatga keltiruvchi barcha jabhalar uchun zahmatlar, kashfiyotlar, yaratilgan, bunyodkorliklar imtihoni. Men har bir yurtdoshimiz mana shu qutlug' arafa kunlari o'zini yana bir zo'r imtihon oldida turgan mas'uliyatli talabaday his qilishini juda istardim.



«Yangi O'zbekiston» va «Правда Востока» gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga «Kolorpak» MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2612.
41126 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Jonibek Aljonov
Musahhir: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillim:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy